

## **Maktabgacha ta'limda musiqiy - estetik rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etishning innovatsion usullari**

Malika Shuhrat qizi Nabiyeva  
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

**Annotatsiya:** Maqolada musiqiy bilim berish va ularni qo'llash usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa san'ati insonning yoshligidan kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa- kishiga butun hayoti davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa san'ati inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib voris tarbiyalashda musiqaning alohida o'rni borligi ayni haqiqat, bolani har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdek sharaflilikni to'g'ri yo'lga qo'yish biz pedagoglarga hamda bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, musiqiy - estetik rivojlanish, mashg'ulotlarni tashkil etish, musiqiy faoliyat, musiqa ta'limi, bilim, madaniy hayot

## **Musical-aesthetic development in preschool education innovative methods of training**

Malika Shuhrat kizi Nabiyeva  
Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

**Abstract:** The article discusses the methods of imparting musical knowledge and their application. The art of music has a strong influence on a person from his youth and occupies a great place in his general cultural development. Music, which occupies a wider place in the cultural life of society, is a constant companion of a person throughout his life. The art of music penetrates deeply into the human heart and has the power to vividly express this soul. So, it is true that music has a special place in raising a worthy successor to our ancestors, and doing the honorable job of raising a child to become a mature person in all respects is a great responsibility for us pedagogues and future personnel.

**Keywords:** preschool education, musical-aesthetic development, organization of classes, musical activity, music education, knowledge, cultural life

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa ta'limi sohasidagi "birinchi qadamlar" bu bog'cha bo'lib hisoblanadi, u erda bola musiqa va musiqiy faoliyat

haqidagi asosiy bilimlar bilan tanishadi. Birinchi marta ongliroq yoshda bolalar bog'chada musiqa bilan tanishadilar. Didaktik o'yinlar orqali musiqiy bilim berish va ularni qo'llash usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqa san'ati insonning yoshligidan kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa- kishiga butun hayoti davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa san'ati inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega. Demak, ajdodlarimizga munosib voris tarbiyalashda musiqaning alohida o'rni borligi ayni haqiqat, bolani har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdek sharaflilikni to'g'ri yo'lga qo'yish biz pedagoglarga hamda bo'lajak kadrlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi rivojida kuchli ta'sir o'tkazadi, ko'nikma va malakalarni shakillantiradi, yuksak ma'naviy didni o'stiradi. Musiqaning bola hissiyoti va shakillanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqeylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinni foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakillanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta'sir kuchini e'tirof etgan holda uni o'zining tib kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. "Tib qonuni" asarida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta'riflaganlar: "Go'dakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo'shig'i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi - ruhiga tegishlidir".

Har bir mutaxassis bolaga musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini nazarda tutishi lozim. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi.

San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxurlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak.

Bolalarda kichik yoshlik chog'idan musiqani idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni ko'ra olish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda

badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, musiqa nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak.

Musiqa - san'atning bir turi. U san'atning yana boshqa turlari bilan musiqa chambarchas bog'liqdir. Masalan: musiqa mashg'ulotlarini vokal, raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at, tasviriy san'at, va boshqalar bilan bog'langan xolda olib borish nazarda tutilgan. Bolalar ijrochiligi - tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijroga o'rgatish va boshqa faoliyatlari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir.

Musiqa rahbari o'z dasturiga o'zbek bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlaridan kiritishi lozim. Musiqiy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqaraslarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Frensis Galton o'zining "Talantning tug'maligi, uning Qonuniyatlari va oqibatlari" nomli kitobida "... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir...", - deb aytgan. Biroq ko'pgina mashhur ijrochilar buyuklikning sababi to'qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog'liqligini ta'kidlashgan.

Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda respublikada 9000 mingdan ortiq davlat va xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat olib olib borayapti. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bug'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan mashg'ulot jarayonida keng foydalanish musiqa tugaragi rahbari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur tavsiyada mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda, O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqani bolalarning idrok etish qobiliyati darajasiga bosqichma-bosqich tatbiq etish nazarda tutiladi. Uslubiy qo'llanmadagi tavsiya etilayotgan ko'rsarmalar, musiqa repertuari jonajon vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shavqat kabi hislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan va mashg'ulot jarayonida quyidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish zarur. Tovushni to'g'ri ohangda ijro

etish, musiqa ostida ritmik harakatlarni ifodali bajara olish, cholgʻu asboblarning tovushiga koʻra ajrata olish va ularni aniq uslublarda, bolalar cholgʻu asboblari chalishga oʻrgatishdan iborat. Zamonamizdagi oʻzgarishlar, maʼnaviy, zamonaviy madaniy, pedagogik siyosiy, texnologiyalar, iqtisodiy axborot texnologiyalarining taʼlim jarayoniga kirib kelishi boʻlajak «Musiqa taʼlimi» yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan yuqori talablarni qoʻymoqda. Boshlangʻich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya bolaning bilim, koʻnikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlangʻich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qatʼi nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu boʻyicha oʻtkaziladigan tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari boʻyicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashgʻulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yoʻnaltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali oʻtishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli oʻyinlar rejalashtiriladi<sup>5</sup>. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat kichik guruhda, katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida oʻtadigan faoliyat bola rahbarligi ostida oʻtadigan faoliyat) va uni oʻtkazish joyi (xona ichidagi faoliyat koʻchadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak. Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan boʻlishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo oʻzgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz koʻproq yoxud kamroq vaqtga moʻljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bogʻga borishni rejalashtirgan boʻlsa-yu, ob-havo juda yomgʻirli boʻlsa, bu tadbirni xonada oʻtkazishning imkoni boʻlgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Musiqa madaniy hayotimizda keng oʻrin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan sanʼat turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri boʻlib, atrofdagi goʻzal narsalarni toʻgʻri idrok etishga va qadrlashga urgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va maʼnaviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli taʼsir kursatish imkoniyatiga ega boʻlib, oʻquvchilarni nafosat olamiga olib kirish va goyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sogʻligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Saʼdiy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yoʻldoshidir». Bolalar muassasalarida musiqa taʼlimiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa oʻqitish metodikasini yaxshi bilishi, bogʻcha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qoʻshiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqa taʼlimini shartli ravishda ikki bosqichga boʻlish mumkin.

Birinchi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi.

Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. КБ Холиков. Проблематика музыкальной эстетики как фактическая сторона повествования. *Science and Education* 3 (5), 1556-1561
2. КБ Холиков. Тяготение основа-основ в музыкальной композиции. *Scientific progress* 2 (4), 459-464
3. КБ Холиков. Вокальная культура как психологический феномен. *Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии* 2 (11), 118-121
4. КБ Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389
5. КБ Холиков. Важнейшие полифонические формы многоголосных произведений. *Scientific progress* 2 (4), 557-562
6. КБ Холиков. Уровень и качество усвоения предмета музыки, закрепление памяти и способности учащихся. *Science and Education* 5 (2), 452-458

7. КБ Холиков. Обученность педагогике к освоению учащимися сложным способам деятельности. *Science and Education* 5 (2), 445-451
8. КБ Холиков. Обязанности миеллина, о левом и правом пороге миеллина. *Science and Education* 5 (2), 33-44
9. КБ Холиков. Эффективные действия сквалан-углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли. *Science and Education* 5 (2), 27-32
10. КБ Холиков. Педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. *Science and Education* 4 (7), 332-337
11. КБ Холиков. Защитный уровень мозга при загрузке тренировочных занятиях и музыкального моделирование реальных произведениях. *Science and Education* 4 (7), 269-276
12. КБ Холиков. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. *Science and Education* 4 (7), 142-153
13. КБ Холиков. Новые мышление инновационной деятельности по музыкальной культуры в вузах Узбекистана. *Science and Education* 4 (7), 121-129
14. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. *Science and Education* 3 (5), 1562-1569.
15. КБ Холиков. Модели информационного влияния на музыку управления и противоборства. *Science and Education* 4 (7), 396-401
16. КБ Холиков. Измерение эмоции при разучивании музыки, функция компонентного процессного подхода психологического музыкального развития. *Science and Education* 4 (7), 240-247
17. КБ Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. *Science and Education* 4 (7), 378-383
18. КБ Холиков. Внимания музыканта и узкое место захвата подавление повторения, сходство многовоксельного паттерна. *Science and Education* 4 (7), 182-188
19. КБ Холиков. Сравнение систематического принципа музыкально психологического формообразования в сложении музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239
20. КБ Холиков. Мозг и музыкальный разум, психологическая подготовка детей и взрослых к восприятию музыки. *Science and Education* 4 (7), 232-239
21. К.Б. Холиков. Музыка как релаксатор в работе мозга и ракурс ресурсов для решения музыкальных задач. *Science and Education*. 3 (3), 1026-1031.
22. КБ Холиков. Характеристика психологического анализа музыкальной формы, измерение ракурса музыкального мозга. *Science and Education* 4 (7), 214-222

23. КБ Холиков. Абстракция в представлении музыкально психологического нейровизуализации человека. *Science and Education* 4 (7), 252-259

24. КБ Холиков. Ответ на систему восприятия музыки и психологическая состояния музыканта. *Science and Education* 4 (7), 289-295

25. КБ Холиков. Проект волевого контроля музыканта и воспроизводимость музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 189-197

26. КБ Холиков. Психика музыкальной культуры и связь функции головного мозга в музыкальном искусстве. *Science and Education* 4 (7), 260-268

27. КБ Холиков. Внимание и его действие обученному музыканту и оценка воспроизводимости тренировок. *Science and Education* 4 (7), 168-176

28. КБ Холиков. Рост аксонов в развивающийся музыкально психологического мозга в младшем школьном возрасте. *Science and Education* 4 (7), 223-231

29. КБ Холиков. Аксоны и дендриты в развивающийся музыкально психологического мозга. *Science and Education* 4 (7), 159-167

30. КБ Холиков. Фокус внимания и влияние коры височной доли в разучивании музыкального произведения. *Science and Education* 4 (7), 304-311